



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
<i>Xolmurodova Sarvinov</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaniing psixologik determinantlari hamda klinik jihatlarini	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'ichi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля kameraproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Ислонбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'kylanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyeich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari	219
<i>Alqarov Qodir Xolmatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari	226
<i>Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	240
<i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish	286
<i>Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarining to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH TEKNOLOGIYASI

Beshimova Muazzam Bahodirovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti, "Pedagogika" fakulteti 4-kurs talabasi

To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Mirzayeva Nigora Bozorovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti,

"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mustaqil fikrlashni rivojlantirish usullari yoritilgan hamda tadqiqot jarayonida interfaol metodlarning samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning tabiiy fanlar bilan bog'liq jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, muam-moli ta'lim, kreativ fikrlash, innovatsion g'oyalar.

Abstract: The theoretical and methodological foundations for the development of independent thinking skills in primary school students are analyzed. Methods for developing independent thinking based on modern pedagogical technologies are described, and the effectiveness of interactive methods is substantiated throughout the research process. In addition, the role of natural science in developing independent thinking skills among primary school students is highlighted.

Key words: independent thinking, critical thinking, primary education, pedagogical technology, interactive methods, prob-lem-based learning, creative thinking, innovative ideas.

Аннотация: Проанализированы теоретические и методологические основы формирования навыков самостоя-тельного мышления у учащихся начальной школы. Освещены методы развития самостоятельного мышления на основе современных педагогических технологий, а также обоснована эффективность интерактивных методов в процессе исследования. Кроме того, раскрыта роль естественных наук в развитии навыков самостоятельного мышления у учащихся начальной школы.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, критическое мышление, начальное образование, педагогиче-ские технологии, интерактивные методы, проблемное обучение, творческое мышление, инновационные идеи.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini shakllantirish ustuvor vazifa-lardan biri sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortib borishi hamda jamiyatning intellektual salohiyatga bo'lgan ehtiyoji ta'lim mazmunini yanada yangilashni, an'anaviy bilim berish yondashuvidan kompetensiyaviy yondashuvga o'tishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish muammosi alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Har bir o'quvchi o'z fikrini erkin bayon qilishi, jamoada o'z o'rnini topa bilishi kerak.

Boshlang'ich sinf yoshi shaxs tafakkurining shakllanishida muhim bosqich bo'lib, aynan shu davrda o'quv-chilarda mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash elementlari rivojlana boshlaydi. Biz aynan shu davrdan ularning qiziqishlari, intilishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib, ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishimiz lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslariga oid izlanishlar davomida o'quvchilarning fikrlash faoliyatida individual va tipik xususiyatlar mujassamlashadi, degan xulosaga keldik. Agarda o'quvchi voqea va hodisalarni inson ongida aks etadigan, inson idrok qilgan va xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma'lum ma'no va mohiyat kasb etsa, ularni



samarali eslab qolishi mumkin. Shunga ko'ra, insonning dunyoni anglashi, tushunishi hamda unga ongli munosabatda bo'lish kabi bilish jarayonlarini tafakkur yuritish, ya'ni fikrlash jarayoni deb atash mumkin.

V. Karimova fikrlash jarayonining psixologik asoslarini tahlil qilgan. U fikrlash inson miyasi faoliyati ekanligini ta'kidlaydi hamda fikriy operatsiyalarni quyidagicha izohlaydi: "Eng elementar harakatlarni rejalashtirishdan tortib, murakkab muammolarni hal etishga qaratilgan operatsiyalar hammasi miyada sodir bo'ladi. Miya faoliyati bilan fikrlash faoliyati o'zaro uzviy bog'liq. Har bir insonni fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har on, har daqiqada inson miyasi qandaydir fikrlar bilan band bo'ladi. Ularni tartibga solish, kerakli yo'nalishga qaratish, ichki yoki tashqi nutq vositasida ularni yechish fikrlash jarayonidir".

Fikrlash jarayoni idrokdan farq qilib, narsalar va ularning xossalarini ular yo'q paytda ham aks ettirishga imkon beradi. Fikr yuritish jarayoni ma'lum bir masala, muammo yoki jumboqni hal qilish zarur bo'lganda yuzaga keladi. Fikrlash jarayonining shakllanishi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'quv faoliyatining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun reproduktiv faoliyatdan ko'ra produktiv faoliyat ustuvor bo'lishi lozim. Produktiv faoliyat jarayonida o'quvchi nafaqat mavjud bilimlarni o'zlashtiradi, balki ularni qayta ishlaydi, yangi vaziyatlarda qo'llaydi hamda mustaqil xulosalar chiqaradi.

Didaktik nuqtai nazardan, mustaqil fikrlash quyidagi komponentlar orqali shakllanadi:

- muammoni anglash va qo'yish;
- gipoteza ilgari surish;
- dalillar asosida tahlil qilish;
- xulosa chiqarish va baholash.

Mazkur komponentlar o'quv jarayonida tizimli ravishda shakllantirilgandagina o'quvchilarda haqiqiy mustaqil tafakkur rivojlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash ko'proq ko'rgazmali-obrazli xarakterga ega bo'lib, asta-sekin mantiqiy fikrlash elementlariga o'tadi. Demak, ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik, modellash va vizual vositalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

R.B. Mavlonova, N. Normurodova va Rahmonqulova tarbiyaviy jarayonning samaradorligi o'quvchilarning faol ishtiroki, mustaqil qaror qabul qilishi va shaxsiy fikrini erkin ifodalashi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi ^[1]. Mualliflarning fikricha, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish ta'lim jarayonini faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishni talab qiladi.

O. Hasanboyeva tarbiyaviy faoliyat metodikasini tahlil qilar ekan, o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish va ularning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash ta'lim samaradorligini oshirishini ko'rsatadi ^[2]. Tadqiqotlarda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va o'qitishda differensial yondashuvdan foydalanish zarurligi alohida qayd etilgan.

N.N. Azizxo'jayeva hamda S.A. Madyarova va hamkorlari pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish mumkinligini asoslab berganlar ^[3; 4]. Ularning ilmiy qarashlarida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar yaratish va o'quvchilarni faol fikrlashga jalb etish mustaqil fikrlashni shakllantirishning asosiy vositalari sifatida ko'rsatilgan.

Z.K. Murodova bo'lajak pedagoglarning ilmiy va kasbiy ijodkorligini rivojlantirishga oid tadqiqotlarida mustaqil fikrlashning kreativ faoliyat bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi ^[5]. Olimning fikriga ko'ra, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi ularni tahliliy yondashuv, muammoni hal qilish va yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatini rivojlantirish orqali shakllanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ma'lumotlarni olish uchun ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish, pedagogik kuza-tish hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmalariga oid mavjud nazariy va amaliy manbalarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar, pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tavsifiy tahlil va umumlashtirish usullari asosida qayta ishlandi. Tahlil jarayonida turli pedagogik yondashuvlarning samaradorligi o'zaro taqqoslanib, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlashtirildi hamda olingan natijalar ilmiy xulosalar asosida tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda refleksiya (o'z faoliyatini tahlil qilish) alohida o'rin tutadi. Refleksiya jarayonida o'quvchi:

- o'z fikrini baholaydi;
- xatolarini aniqlaydi;
- keyingi faoliyatini rejalashtiradi.

Bu esa metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Metakognitiv yondashuv esa zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shuningdek, mustaqil fikrlashni rivojlantirishda differensial va individual yondashuv muhim omil hisoblanadi. Chunki har bir o'quvchining bilish faoliyati, qiziqishi va intellektual imkoniyatlari turlicha bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi o'quv materialini turli darajada va shakllarda taqdim etishi, topshiriqlarni individuallashtirishi zarur. Darslarda interaktiv usullardan foydalanishni shunday tashkil qilish joizki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi. O'qituvchi o'quv jarayonining tashkilotchisi, rahbari va nazoratchisi hamdir. O'quvchilarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati ularni emotsional jihatdan qoniqtirishi darkor, ana shundagina ular o'z fikrlarini erkin bayon eta oladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash malakalarini takomillashtirish ularning ijodkorligini, masalalarni yechish qobiliyatini va umumiy kognitiv rivojlanishini tarbiyalashda asosiy ahamiyatga ega. Mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarning murakkab qiyinchiliklarni yengishi, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishi hamda o'zlarining intellektual o'sishini shakllantirishi va jamiyatga mazmunli hissa qo'shishga qodir yoshlar bo'lib yetishishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlar orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirishning asosiy usullaridan biri qiziquvchanlikni oshirish va izlanishni rag'batlantirishdir. Savol berish, tekshirish va kashfiyotni qadrlaydigan sinf muhitini yaratish orqali o'qituvchilar o'quvchilarda javob izlashga, yangi g'oyalarni o'rganishga va atrofdagi dunyoga tanqidiy munosabatda bo'lishga bo'lgan ichki motivatsiyani uyg'otishi mumkin. Qiziqishni rag'batlantirish mustaqil fikrlash uchun asos bo'ladigan hayrat va izlanuvchanlik tuyg'usini tarbiyalaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uzluksiz, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni talab etadi. Mustaqil fikrlash o'quvchilarning nafaqat bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki ularning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy tahlillar asosida aniqlanishicha, an'anaviy reproduktiv ta'lim metodlari o'quvchilarda mustaqil fikrlashni yetarli darajada shakllantirmaydi. Aksincha, muammoli ta'lim, interfaol metodlar hamda o'yin texnologiyalariga asoslangan yondashuvlar o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga undaydi va o'z fikrini asoslab berish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova R.B., Normurodova N., Rahmonqulova. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent: "Tib kitob" nashriyoti, 2010. – 4-b.
2. Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: "Ilm ziyo", 2016. – 79 b.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. Madyarova S.A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009.
4. Муродова З.К. Развитие научного и профессионального творчества у будущих учителей // Бюллетень науки и практики. – 2021. – 7(4). – С. 416–421.
5. Абиркулов Х.И. ва бошқалар. Ижтимоий экология. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2004. – 112 б.
6. Банников А.Г., Вакулин А.А., Рустамов А.К. Основы экологии и охрана окружающей среды. – М.: Колос, 1999. – 304 с.
7. Бекназов Р.У., Новиков Ю.В. Охрана природы: Учебное пособие. – Ташкент: Укитувчи, 1995. – 583 с.
8. Зверев И.Д., Захлебный А.К. Охрана природы в школьном курсе биологии: Пособие для учителя. – М., 1987. – 130 с.
9. www.daryo.uz

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.